

# Talim yo'naliشining "Aniq koordinatali qishloq xo'jaligi asoslari va vositalari" fani uchun o'quv materiallari ishlab chiqish bo'yicha konsulant xizmatlari (qiziqishni bildirish uchun so'rov)

Tashkilot/Institut/Kompaniya: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIQXMMI) Loyiha nomi: Xorijiy universitetlardagi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida muhandis kadrlarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish

Loyiha ID: AIF 2/16

## O'QUV MATERIALLARI ISHLAB CHIQISH BO'YICHA KONSULTANT XIZMATLARI

TIQXMMI Jahon bankining O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'limdi modernizatsiya qilish loyihasi doirasida Akademik innovatsiyalar fondining "Xorijiy universitetlardagi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida muhandis kadrlarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish" loyihasini amalga oshirmoqda va loyiha mablag'larining malum bir qismini konsulant maslahatchi xizmatlari uchun sarflanishi rejalashtirilgan.

Konsulant maslahatchi xizmatlari "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" va "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash" talim yo'naliшlarida o'qitilishi rejalashtirilgan "Aniq koordinatali qishloq xo'jaligi asoslari va vositalari" fani uchun o'quv materiallari ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. O'quv materiallari ishlab chiqish bilan bog'liq ishlarni 26.07.2021y - 5.09.2021y oralig'ida bajarilishi rejalashtirilgan.

TIQXMMI konsulantlar yoki tashkilotlar/kompaniyalarini yuqoridaagi xizmatlarni ko'rsatish uchun qiziqishlarini bildirishga taklif qiladi. O'quv materiallari quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin faqat shular bilan chegaralanmaydi:

- fanni namunaviy va ishchi o'quv dasturlari, kalendar reja
- maruzalar to'plami/kursi
- amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma yoki tavsiyalar
- mustaqil talim bo'yicha uslubiy ko'rsatma yoki tavsiyalar
- maruza mavzulari bo'yicha presentatsiyalar
- talabalar bilimini tekshirish uchun testlar

Konsulant Jahon bankining "Jahon bankidan qarz oluvchilar tomonidan konsultantlarni tanlash va ishga olish" (joriy nashr) qo'llanmasida keltirilgan tartib-qoidalarga muvofiq tanlanadi.

O'quv materiallarini ishlab chiqishga qiziqish bildirgan nomzodlar yoki tashkilotlardan takliflarni (hujjatlar to'plamini) 2021 yil 23 iyulga qadar muhrlangan konvertda loyiha ofisiga (yoki elektron pochta orqali) yetkazilishini taminlashi so'raladi. Hujjatlar to'plamida fan uchun rejalashtirilayotgan maruza, amaliy va laboratoriya ishlari mavzulari mundarijasi, ishni tashkil qilish bo'yicha qisqa reja va byudjet, nomzod konsulant yoki tashkilot haqidagi malumotlar (pasport malumotlari yoki ustav, CV/malumotnoma, diplomlari, sertifikatlari va boshqa hujjatlar nusxalari) bo'lishi kerak.

Qiziqish bildirgan konsulantlar quyida keltirilgan elektron pochta yoki telefon orqali qo'shimcha malumotlar olishi mumkin.

Manzil:

TIQXMMI, V-bino, V-306, 310 xonalar

Qori Niyazov ko'chasi 39 uy

Toshkent, 100000 O'zbekiston

Telefon: 998 71 237 2534

E-mail: [aif-agr-eng@tiiame.uz](mailto:aif-agr-eng@tiiame.uz)

Vebsayt: <http://international.tiiame.uz/ru/page/Oliy%20ta'limni>

Texnik koordinator: Mansur Amonov